XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2023 - yil 17 - avgust VI-61-120-8-108-K/23 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumani mahalliy budjetining 2023-yil II-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli Qonunining 13-moddasiga muvofiq tuman budjetining 2023-yi II-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag’laridan foydalanish bo‘yicha Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.O‘zbekiston Respublikasi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30-dekabrdagi 813-sonli O’zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasiga muvofiq mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman budjetining joriy yil II-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi **2 507 189 000** so‘mni tashkil etganligi hamda ushbu mablag‘lar hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflar doirasida yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’ining hisoboti tasdiqlansin.

3. Tuman budjetining joriy yil II-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilsin:

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son qarori va va 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409 son Qaroriga muvofiq jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun 30 foizi **752 000 000** so‘m mablag‘ tuman hokimligi huzurida ochilgan tashabbusli byudjet

jamg‘armasiga o‘tkazib berilisin.

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 8-oktabrda Jamiyatda ayollar va yoshlarning o‘rnini oshirish hamda bandligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida (79-son bayonning 12-bandi) “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftariga” kiritilgan yoshlar va ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida har chorakda daromadlarning xarajatlardan oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan kamida 15 foizi yoshlar va ayollar jamg‘armasiga ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin;

-“Yoshlar daftari”ga kiritilgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga **376 000 000** so‘m;

-“Ayollar daftari”ga kiritilgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan “Ayollar daftari” jamg‘armasiga **376 000 000** so‘m; -

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 18-oktabrdagi PF-6324-son Farmonining 3-bandiga asosan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarini rag‘barlantirish” jamg‘armasiga uchun 3 (foizi) **75 000 000** so‘m;

-tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi 46-son farmoni bo‘yicha ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish uchun 2 (foizi) **50 000 000** so‘m;

- tuman hokimligi apparati (tuman hokimi va o‘rinbosarlari bundan mustasno) va texnik xodimlari va tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'iga bir oylik ish haqi miqdorida qo‘shimcha haq to‘lashga ish haqi uchun **91 000 000** so‘m;

-Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi kotibiyati xodimlariga oylik maoshiga qo‘shimcha ustama to‘lovlarini to‘lash uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun **15 000 000** so‘m;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazuvchi 9-Surxondaryo okrug Komissiyasining 2023-yil 12-iyuldagi 02-23/24-sonli xatining ijrosini ta’minlash maqsadida Oltinsoy tumani hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari Mamarajabov Raxmat, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tiliga oid qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Oripov Fozil, jamoatchilik bilan ishlash bo‘yicha maslahatchisi

Bo‘ronov Bobomurod hamda tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi yetakchi mutaxassisi Ibragimov Fazliddinga oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun **11 375 000** so‘m;

tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 60-maktabiga ichimlik suvi bilan ta’minlashga polietilin quvur olish uchun **22 000 000** so‘m so‘m pul mablag‘lari ajratilsin.

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil I-II choragida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushum **738 197 500** so‘m tashkil qilgan, ushbu mablag‘ hisobidan quyidagi yo‘nalishlarga mablag‘ ajratilsin;

-tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga Bo‘ston mahalla fuqarolar yig‘ini piyodalar yo‘lakchasidagi arkolarni ta’mirlash maqsadida tunikafon mahsulotlari sotib olish uchun 30 000 000 so‘m;

-tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga Bo‘ston mahalla fuqarolar yig‘iniga yevro beton devorlari o‘rnatish maqsadida yevro beton devorlari sotib olish uchun 118 000 000 so‘m;

-tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tuman markazi infratuzilmasini yaxshilash uchun 73 000 000 so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga “Qoratepa” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Sport o‘yingohini temir panjaralar bilan o‘rash uchun 30 000 000 so‘m;

- tuman hokimiyatining ma’muriy binosini quriqlash xizmatiga **70 000 000** so‘m;

- tuman hokimiyatiga xizmat avto mashinalariga texnik xizmat ko‘rsatish uchun **74 000 000** so‘m;

- tuman hokimiyatiga elektr energiyasidan bo‘lgan qarzdorlikni qoplash uchun **74 000 000** so‘m;

- tuman hokimiyatiga internet xizmati uchun **60 000 000** so‘m;

- tuman hokimiyatiga Taxiatosh tumanida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarida tovar-moddiy boyliklaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun **55 000 000** so‘m;

- tuman hokimiyatiga muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarga o‘quv

qirollari va sovg‘alar uchun **24 000 000** so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi ichki kuchalarni toshlash dezil yoqilg‘isi olish uchun **3 600 000** so‘m;

-tuman Soliq inspeksiyasiga yangi xojatxona qurishga kerak bo‘ladigan qurilish materiallari sotib olish uchun **127 000 000** so‘m pul mablag‘lari ajratilsin.

4. Tuman budjetining joriy yil II-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilsin.

5.“Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlanganligi yuzasidan mutasaddi tashkilotlar tomonidan xalq deputatlar tuman Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha yozma axborot berib borish yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.O.Maxmatrayemov**